

## SADRIDDIN AYNIYNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY ASARLARIDA AXLOQIY VA PEDAGOGIK AQIDALAR

Gulyamova Xilola Shavkatovna

Buxoro sharidagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotasiya:** maqolada marifatparvar adib, tarixnavis o'lim va yozuvchi Sadridin Ayniy ilmiy-ijodiy merosininig jahon ilm-fanida tutgan o'rni va asarlarida axloqiy va pedagogik aqidalarning ifoda etilishining ahamiyati kabi masalalar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy asar, shoir, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar".

Tarixnavis adib, yirik so'z san'atkori Sadridin Ayniy (1878-1954) o'zining tarixiy, badiiy asarlarida qator muhim masalalar bilan birga Buxoroyi sharifda yashab, ijod etgan tarixchilar, olimlar, shoirlar qalam ahllari, umuman o'z davrining o'qimishli, ziyoli kishilari to'g'risida "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", "Namunai adabiyoti to'chik" ("Tojik adabiyoti namunolari") va "Esdaliklar" kabi yirik asarlarida muhim bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Mashhur ma'rifatparvar adib, olim va jamoat arbobi Sadridin Ayniy (1878-1954) jahon adabiyoti va ayniqsa Sharq hamda G'arb adabiyoti va san'atiga zo'r qiziqish bilan qaragan. U fransuz, ingliz, nemis klassik yozuvchi va shoirlari asarlaribilan tojik va o'zbek tiliga qilingan tarjimalar asosida tanishadi.

Ayniyning 1926 yilda Moskvada, o'zbek tilida, (arab imlosida) chop etilgan "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" nomli mashhur asari yozuvchi ijodida katta o'rin egallaydi. Muallif ushbu tarixiy-adabiy tadqiqotida Ahmad Donish, Iso Maxdum, Sharifjon Maxdum (Sadri Ziyo), Qori Abdulmajid Zufunun, Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Afzal Maxdum Pirmastiy Buxoriy, Mirzo Abdulvohid Munzim, Mir Muhammad Siddiq Hashmat Buxoriy, Yahyoxoja, Abdullaxoja Abdiy, Mulla Sharifi Soat va Abdurauf Fitrat singari buxorolik ma'naviyat va ma'rifat vakillarining ilmiy- ijodiy faoliyatini hurmat va ehtirom ila tilga olib o'tgan.

Mashhur olimning ilm-ma'rifatni istab, eski maktab darslaridan, uning eski ta'lim usullaridan qoniqmay, Buxoro madrasalarida o'qishini ta'minladi. Ayniy o'ttiz yilga yaqin umrini (1889 – 1917) Buxoro shahrida o'tkazdi. Ma'rifatparvar olim o'sha davrdagi

Buxoroning mashhur va ma'lum bo'lgan Miri Arab (1890-1891), Olimjon (1892-1893), Badalbek (1894-1896), Hoji Zohid (1896-1899) va Ko'kaldosh (1899-1900) madrasalarida o'qidi. Ko'plab tarixiy voqealarning jonli guvohi bo'ldi. Bu davrning mashhur olimlari, shoirlari va taniqli ilm ixlosmandlari bilan tanishdi, ilmiy-ijodiy va adabiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Adib va ma'rifatparvar olim Sadridin Ayniy o'zining "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida Buxorodagi yangi usul maktablari va faoliyati, uning rahnamolari xususida batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Xususan, kitobdan "Maktab masalasi", "Buxoroda birinchi usuli jadida maktabning ochilishi", "Maktabni yopmoqqa hozirlanish va imtihon", "Maktabning birinchi marta yopilishi", "Maktab to'g'risida fatvo va munozaralar", "Rus hukumati sobiqasining Buxoro islohoti hamda maktab masalasiga nazar va munosabati", "1914-yildagi hollar va maktablar" va "Maktablarning ikkinchi dopqir yopilishi" nomli bo'limlar o'rin olgan. S.Ayniy o'z kitobida yangi usuldagi maktablarning Buxoro ilmiy muhitida tutgan mavqeyi, maorifparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalari tarqalishi, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish va yuksaltirishdagi xizmatlari xususida batafsil fikr yuritadi.

Adibning fikricha, Buxoro inqilobining yuzaga kelishi ham maktab masalasidan boshlangan. Asarning "Ilmiy inqilobga hozirlanish" bo'limida ta'kidlanishicha, Buxorodagi dastlabki ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalari mashhur xattot va tarixchi olim Ahmad Maxdum Donish (1827-1897)dan boshlangan. S.Ayniy Ahmad Donish bilan shaxsan uchrashib, uning suhbatidan bahramand bo'lmagan bo'lsa ham, lekin uning "Navodir ul vaqoe'" asari bilan tanishganligini, bu asar uning dunyoqarashida katta burilish yasaganligini aytib o'tadi.

Buxoro amirligi hududida ilk usuli jadid maktabini kim ochgan degan haqli savol tug'iladi. S.Ayniyning e'tirofiga ko'ra, Buxoroda dastlabki yangi usul maktabini 1900-yilning boshlarida, mahalliy ziyolilardan bo'lgan Mulla Jo'raboy Pirmastiy ochgan. Lekin bu maktab tezda yopilgan. Mulla Jo'raboy Rusiyadagi yangi usul maktablarini ko'rib kelib, Buxoroning Po'stindo'zon (po'stin tikish) guzarida yangi usul maktabini ochadi.



“Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “Buxoroda birinchi usuli jadida maktabi” bo‘limida yozilishicha, 1326-yil hijriy, shovvol oyi o‘nida (milodiy 1908-yil 23-oktabr, yangi hisobda 1908-yil 5-noyabr) Buxoro shahrining Darvozai Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohid Munzim uyida forsiy (tojik) tilida birinchi maxsus usuli jadida maktabi ochiladi. Unga Abdulvohid Munzim muallim etib tayinlanadi. Yuqoridagi asarda aytilishicha, “Bu maktabda dastlab o‘quvchilar quyidagilar edi: Abdurahmonbek – Abdullabek o‘g‘li, uning xizmatkori Abdug‘ani, Afzal va Akram – Ahmad Maxdum Hamdiy o‘g‘li, Muhammadamin – Saidjon Maxdum o‘g‘li, Abduqayim – Abdushukur o‘g‘li. Idi qurbongacha, ikki oy muddatda o‘quvchilar adadi (soni) 12 taga yetdi”.

Yangi usul maktablarida o‘qitish samaradorligini ta‘minlash uchun darslik, qo‘llanma va yangi adabiyotlar, shuningdek, talabchan va iqtidorli muallimlar zarur edi. Chunki ularni kitob va muallimlar bilan ta‘minlash, yoshlarning xorijda ta‘lim olish ishlariga ko‘maklashish jadidlarning asosiy maqsadlaridan bo‘lgan. Yosh buxoroliklar tomonidan tuzilgan “Buxoroyi sharif shirkati” muassisligida S.Ayniyning jadid maktablari uchun yozgan “Tartil ul-Qur‘on” (“Qiroat kitobi”), “Zaruriyoti diniya” (“Diniy kitob”) va “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli o‘qish kitoblari 1909-yilda Orenburgda nashr etiladi. Ayniy “Tahsib us-sibyon” darsligini Ismoil Gasprinskiyning “Xo‘ji sibyon” (“Bolalar muallimi”) kitobi ta‘siri ostida yozgan. Bu kitob 1917-yilda Samarqandda “Ma‘rifat kutubxonasi” (1914-yilda yosh buxoroliklar tashkil etgan) tomonidan ikkinchi marta nashr etiladi.

Amirlik hududida tatar muallimlari ham yangi usuldagi maktab ochish va o‘qitish ishlarini jadal sur‘atlarda olib borganlar. S.Ayniyning o‘zi Abdulvohid Munzimning yangi usul maktabi ochilguniga qadar tatar maktablarida ishlab, dars berish va o‘qitish yo‘llarini o‘rgangan. Xususan, muallifning o‘zi bu haqda “tatar maktabida olti oy ishlab, tajriba orttirdim” – deya qayd etgan edi. 1907-yil Buxoroda tatar Nizomiddin Sobitov (Sobitiy) o‘z uyida qozi Mir Badriddin qozikalon ruxsati bilan tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. Nizom Sobitiyning maktabi Gavkushon mahallasidagi Xolid Burnashev hovlisiga ko‘chirilgandan so‘ng, ko‘p o‘tmasdan 1909-yilda mutaassib ruhoniylar tazyiqida Ostonaqulbiy Qushbegi tomonidan yopilgan. 1908–1910 yillarga qadar, ya‘ni Yosh



buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) tashkiloti tuzilgunga qadar Buxoroda ochilgan jadid maktablari, asosan tatar maktablari bo‘lib, ularda tatar muallimlar dars berishgan.

Yosh buxoroliklarning faol a‘zolaridan bo‘lgan Usmon Xo‘janing qarindoshi Latif Xo‘ja (Latif Xo‘jayev) tomonidan ham Gavkushon mahallasida yangi maktab ochilgan. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo‘lib, sinfda 3 ta globus, kitoblar, partalar, doska, o‘quvchilarga beriladigan daftarlar bo‘lgan. Bitta sinfda boshlang‘ich ta‘lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta‘lim olganlar o‘qitilgan. Darslarni Usmonxo‘ja va Mulla G‘ulom Qodirali olib borgan. S.Ayniy ta‘kidlaganidek, ushbu maktablar “nim (yarim) isloh maktablari” edi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, Buxoro amirligida taraqqiyparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlab, XX asr boshlariga qadar davom etgan. Ahmad Donishdan meros bo‘lib o‘tgan bu teran g‘oyalarni yuksaltirish va rivojlantirish Yosh buxoroliklarning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Mahalliy xalqni, yosh avlodning savodini chiqarish, ularning ongiga ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini singdirishda, avvalo, jadid maktablari asosiy rol o‘ynagan. Jadid bobolarimiz Vatan ravnaqi yo‘lida munosib xizmat qilib, yosh avlodni ilm-ma‘rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatga yetuk va iste‘dodli kadrlarni tayyorlab berishdek mas‘uliyatli vazifani amalga oshirganliklari chindan ham katta e‘tirof va e‘tiborga molikdir.

Mana shu davrdan boshlab uning zamondoshlari va yaqin qalam ahllari Ayniyning ilmiy-ijodiy faoliyati va ilmiy merosiga, jadidchilik va taraqqiyparvarlik faoliyatiga befarq bo‘lmay, o‘z asarlarida, u haqdagi fikr- mulohazalarini va xotiralari yozib qoldirganlar va xolisona baho berganlar.

Ayniy, mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938) bilan uzoq yillar do‘stona va ijodiy hamkorlikda bo‘ladi. Uning maslahati va tavsiyasi bilan Ayniyning qizlar maktabi uchun o‘zbek tilida tuzilgan “Qiz bola yoki Xolida” asari 1924 yilda o‘zbek tilida Berlinda “Kamyoviniy” bosmaxonasida (Abdulvohid Munzim ishtiroki va yordamida) hamda yirik adabiy tadqiqoti va antalogiyasi bo‘lgan “Namunai adabiyoti tojik” (“Tojik adabiyoti namunalari”) asari Moskvada 1926 yilda, nashr etiladi. “Qiz bola yoki Xolida”



asari adabiy-axloqiy kitob bo'lib, xotin-qizlar maktabi uchun o'zbek tilida chiqqan birinchi kitobdir. Shuningdek, F.Xo'jayevning yordami bilan Ayniyning tojik tilida yozgan "Odina" nomli birinchi qissasi rus tiliga tarjima qilinib, 1930 yilda Moskvada nashr etiladi.

Buxoro jadidchilik harakatining mashhur namoyandasi, yozuvchi, dramaturg, notiq va shoir Abdurauf Fitrat (1886-1938) ham zamondoshi Ayniy ijodiga befarq bo'lmagan. Fitrat adibning 1927 yilda birinchi marta tojik tilida nashr etilgan "Odina" asariga so'zboshi yozgan va Ayniyning ushbu asari bilan samimiy tabriklab, qimmatli va muhim ahamiyatga molik asar ekanligini e'tirof etgan. Ayniy ham o'zining "Namunai adabiyoti tojik" asarini tuzganda Fitrat to'plamidan bir necha she'rlarni keltirib, Fitratni XX asr fors-tojik she'riyatining asoschisi sifatida ko'rsatgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'z davrida Ayniy bilan bir davrda ijod qilgan zamondoshlari, uning ijodiga befarq bo'lmagan, olimning ilm-fandagi yutuq va kamchiliklariga munosib baho berib o'tganlar. Bevosita, Ayniyning ham o'zining zamondoshlari haqida ilmiy, ijtimoiy va adabiy maqolalar va katta-kichik asarlar yozib, yaqin aloqada bo'lib kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брагинский И. Западно – восточный литературный синтез и творчество С.Айни. – Душанбе, 2016. – С. 89.
2. Садриддин Айний замондошлари хотирасида. – Тошкент: 2016. – Б. 7.